Aristotel b) Gerodot c) Arximed d) Demokrit
Kimni sharqda «Arastu» deya aytish keyinchalik odatga aylangan.

Aristotel b) Gerodot c) Arximed d) Demokrit
Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi kimning «Evrika!» («Topdim, topdim!») qiyqirig'ini takrorlab yurishadi.
Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Arximed
Arximedning yorug'likni ko'zgu orqali jamlab, qayer ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya mavjud.

Sirakuza b) Frakiya c) Makedoniya d) Rim
Qaysi ibora Arximedga tegishli.

«Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart».

«Bir daryoga ikki marta tushishmumkin emas».

«Menga tayanch nuqtasini topib bersangiz, Yerni ag'darib yuboraman!».

«Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir».

Arximed qanday qonunni ishlab chiqqan.

Tortishish qonuni

Quvvat qonuni

richag qonuni

Nurning tarqalish qonuni

Rimliklar Sirakuzani bosib olganlarida, kim matematikaga oid bir masalani yechishga urinib qumda chizmalar chizgayotgan bo'lgan.

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Arximed

Rimlik askar kimni qilich bilan urganida «Mening chizmalarimga tegma!» deyishga ulgurgan, xolos.

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Arximed

Sokrat (Sharqda keyinchalik «Suqrot» tarzida aytilgan) asli qayerlik.

Sparta b) Afina c) Frakiya d) Sirakuza

Kim o'zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e'lon qilingan edi.

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Suqrot

Suqrotga tegishli fikrni toping.

«Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart».

«Bir daryoga ikki marta tushishmumkin emas».

«Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak».

«Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir».

Kim o'z fikrlarini og'zaki bayon qilgan.

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Suqrot

Suqrotning g'oyalari bizga kim orqali yetib kelgan.

Geraklit b) Platon c) Gerodot d) Arximed

Biz kimni Aflotun sifatida bilamiz.

Geraklit b) Platon c) Gerodot d) Arximed

Suqrot nimaga katta ahamiyat bergan.

fuqarolarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga

Boylik va poraxo'rlikka

ochko'zlik va molparastlikka

ba'zi tartiblarni qo'rqmasdan tanqid qilishga

Delfiya ibodatxonasidagi bitik kimning sevimli

hikmati bo'lgan: «O'z-o'zingni angla!».

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Suqrot

Suqrot, ayniqsa, qaysi singari nuqsonlarni qattiq tanqid qilgan.

fuqarolarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasini

Boylik va poraxo'rlikni

ochko'zlik va molparastlikni

ba'zi tartiblarni qo'rqmasdan tanqid qilishni

Suqrot qayerdagi ba'zi tartiblarni qo'rqmasdan tanqid

qilgani uchun o'limga mahkum etilgan.

Sparta b) Afina c) Frakiya d) Sirakuza

Kim tarixda odamgarchilik, sabr-matonat va jasurlik timsoli bo'lib qolgan.

Geraklit b) Demokrit c) Gerodot d) Suqrot

30-Mavzu: Qadimgi Yunoniston afsonalari (34 ta)

1. Qadimgi yunonlarning xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlaridagi kentavr deb ataladigan maxluqlar qay tazda tasvirlanga?

A) yarim qush, yarim ayol

B) yarim baliq, yarim ayol
 C) yarim ot, yarim odam
 D) xudolardan tug'ilgan qudratli pahlavon

2. Qadimgi yunon rivoyatlariga ko'ra, yarim qush yarim ayol qiyofasidagi mahluqlar nima deb nomlangan?
 A) sirena B) titan
 C) kentavr D) siklop

3. Ma'lumki, qadimda yunonlarning xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlarida peshonasida bitta dumaloq ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Bunday mahluqlar nima deb nomlanadi?
 A) titan B) siklop
 C) kentavr D) sirena

4. Qadimgi yunon mifologiyasidagi Geya va Uran qanday ma'noga ega?
 A) Oy va Yulduz B) quruqlik va suv xudolari
 C) Yer va Osmon D) Oy va Quyosh xudolari

5. Ma'lumki, yunon asotirlarida aytilishicha, azalda Yer hamma tomonidan dengizlar bilan o'raglan. Dastlab qaysi titan (iloh) barcha dengizlarning hukmdori hisoblangan?
 A) Poseydon B) Zevs
 C) Atlas D) Okean

6. Qadimgi yunon asotirlariga ko'ra, Atlas bu - ...
 A) yelkasida Osmon gumbazini suyab turuvchi titan
 B) Yer ilohasi C) Quyosh xudosi
 D) dastlabki butun Yer yuzini qoplagan dengizlar hukmdori bo'lgan titan

7. Ma'lumki, qadimgi yunonlarning uch xudosi Olamga hukmronlik qilar edi: osmonda, dengizda va marhumlar saltanatida. Ular qaysi xudolar hisoblangan?
 A) Demetra, Femida, Gefest
 B) Gelios, Poseydon, Aid
 C) Zevs, Poseydon, Afina
 D) Zevs, Poseydon, Aid

8. Quyidagi qaysi qatorda yunon xudolarining ta'rifi noto'g'ri berilgan?
 A) Afina – donishmandlik ilohasi
 B) Ares – urush xudosi
 C) Poseydon – dengiz xudosi
 D) Gelios – Yer ilohasi

9. Quyidagi qaysi qatorda yunon xudolarining ta'rifi to'g'ri berilgan?
 A) Appolon – yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi
 B) Geya – Quyosh xudosi
 C) Demetra – adliya ilohasi
 D) Femida – sharob xudosi
 E) Dionis - sharob xudosi

10. Qadimgi yunon mifologiyasida Zevs bu - ...
 A) yelkalarida Osmon gumbazini suyab turuvchi xudo

B) oily xudo va qolgan barcha xudolarning rahnamosi
 C) dastlabki butun Yer yuzini qoplagan dengizlar hukmdori bo'lgan titan
 D) Yer ilohasi

11. Qadimgi yunonlar e'tiqodida Quyosh xudosi nima deb nomlangan?
 A) Femida B) Amon-Ra
 C) Gelios D) Appolon

12. Qadimgi yunonlarning dehqonchilik va hosildorlik ilohasini aniqlang.
 A) Poseydon B) Afrotida
 C) Germes D) Demetra

13. Ma'lumki, yunonlarning oily xudosi Zevsning inisi Poseydon – dengiz xudosi, qizi Afina – donishmandlik ilohasi. Uning o'g'li qanday xudo hisoblangan?
 A) dehqonchilik va hosildorlik xudosi
 B) yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi
 C) Quyosh xudosi D) Yer xudosi

14. Ma'lumki, Qadimgi Misrda adolat va adliya ilohasi Maat hisoblangan. Qadimgi yunon mifologiyasida bunday xudo nomi qanday nomlanadi?
 A) Artemida B) Demetra
 C) Afina D) Femida

15. Quyidagi atamalar orasida faqatgina Qadimgi Yunonistonga taaluqligini aniqlang.
 1) oykumena; 2) polis; 3) plebey; 4) goplit; 5) konsul; 6) patritsiy; 7) falanga; 8) ilot; 9) metek; 10) kolon; 11) palestr; 12) legion.
 A) 1, 3, 5, 8, 9, 11, 12 B) 2, 3, 6, 7, 9, 12
 C) 1, 2, 4, 7, 8, 12 D) 1,2,4,7,8,9,11

16. Afsonalarning "mif" deya nomlanishi qaysi tilga xos?
 A) lotin B) yunon C) ivrit D) ingiliz

17. Gerakl necha martalik jasorati uchun Olimp tog'idagi xudolar saltanatida faxrli o'ringa ega bo'lgan?
 A) 12 B) 15 C) 17 D) 22

18. Yunonistonda yerosti saltanati xudosi kim hisoblangan?
 A) Zevs B) Apollon C) Aid D) Poseydon

19. Yunonistondagi past tabaqali ma'budlar nima deb nomlangan?
 A) Satir, nimfa B) Siklop, Sirena C) Furiya
 D) Kentavr

20. Yunonlarning fikriga ko'ra, qaysi ma'budlar o'rmonlar, daryolar, tog'larda yashaydi deb tasavvur etilgan?
 A) Satir, nimfa B) Siklop, Sirena C) Furiya
 D) Kentavr

21. Qaysi xalq o'z xudolarini qizg'anchiq, shavfqatsiz, kunni bazm-u jamshid va ermakbozlikda o'tkazadi deb bilishgan?
 A) hindlar B) yunonlar C) rimliklar D) misrliklar

22. Qadimgi yunonlar dinida Zevsning qizi, jangari ayol, donishmandlik ilohasi bo'lgan iloha qaysi bo'lgan?
 A) Demetra B) Nika C) Afina D) Diana

23. Qadimgi yunonlar dinida Apollon qanday xudo bo'lganini aniqlang?
 A) yorug'lik xudosi B) hamma javoblar to'g'ri
 C) musiqa va she'riyat xudosi D) Zevsning o'g'li

24. Qadimgi yunonlar dinida Yer ilohasi qanday nomlangan?
 A) Afina B) Geya C) Diana D) Demetra

25. Qadimgi yunonlar dinida temirchilar va hunarmandlar xudosi qanday nomlangan?
 A) Gerakl B) Gefest C) Geya D) Germes

26. Qadimgi yunonlar dinida Afrotida qanday iloha bo'lgan?
 A) urush xudosi B) muhabbat va go'zallik ilohasi
 C) musiqa va she'riyat xudosi D) temirchilar va hunarmandlar xudosi

27. Qadimgi yunonlar dinidagi urush xudosini aniqlang?
 A) Mars B) Ares C) Zevs D) Afina

28. Qadimgi yunonlar dinida Dionis qanday xudo hisoblangan?
 A) sharob xudosi B) temirchilar xudosi
 C) savdo-sotiq xudosi D) g'alab xudosi

29. Qadimgi yunonlar dinida savdo xudosi qanday atalgan?
 A) Dionis B) Merkuriy C) Germes D) Xronos

30. Qadimgi yunonlar dinida Nika qanday iloha bo'lgan?
 A) g'alaba ilohasi B) sevgi xudosi C) zamon xudosi D) sharob xudosi

31. Qadimgi yunonlar dinida Zamon xudosi qanday atalganligini aniqlang?
 A) Xronos B) Eos C) Eros D) Aid

32. Qadimgi yunonlar dinida Artemida qanday xudo hisoblangan?
 A) o'rmonlar va ovchilik xudosi
 B) sevgi va muhabbat xudosi
 C) marhumlar saltanati xudosi
 D) uyqu xudosi

33. Qadimgi yunonlar dinida Gipnos qanday xudo bo'lgan?
 A) uyqu xudosi B) sevgi xudosi
 C) o'rmonlar va ovchilik xudosi
 D) marhumlar saltanati xudosi

34. Qadimgi yunonlarning e'tiqodicha xudolar qayerda yashaydilar deb bilganlar?
 A) hamma javoblar to'g'ri
 B) Makedoniya va Fessaliya chegarasida
 C) Yunonistonning Elida viloyatida
 D) Olimp tog'ida

31-mavzu. O'rta Osiyoda ahamoniylar hukmronligi (51 ta)

1. O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko'rgan dastlabki fors podshosi kim bo'lgan?
 A) Doro I B) Kir II
 C) Kserks D) Doro II

2. Kir II tomonidan bosib olingan O'rta Osiyo hududlarini aniqlang.
 A) Parfiya, Midiya va Lidiya
 B) Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya
 C) Midiya, Armaniston va Lidiya
 D) Parfiya, So'g'diyona va Gurjiston

3. Fors shohi Kir II qachon ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qiladi?
 A) mil.avv.530-yil B) mil.avv.522-yil
 C) mil.avv.545-yil D) mil.avv.540-yil

4. Fors shohi Kir II ning massagetlar ustiga yurishi haqida qaysi tarixchi yozib qoldirgan?
 A) Platon B) Poliyen
 C) Gerodot D) Gomer

5. Qadimda kim "tarix otasi" deya yuritilgan?
 A) Platon B) Poliyen
 C) Gerodot D) Gomer

6. Kir II massagetlar ustiga yurish qilganda massagetlar malikasi kim bo'lgan?
 A) Tug'shoda B) To'maris
 C) Ravshanak D) Sparangiz

7. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularning malikasi To'maris bosqinchilarga qanday taklif bilan murojaat qiladi?
 A) tinch omon ketish taklifi bilan
 B) agar massagetlar yurtiga hujum qilmasa unga turmushga chiqish taklifi bilan
 C) omon qolish niyatida katta to'lov taklifi bilan
 D) massagetlar yurtining bir qismini berish taklifi bilan

8. Gerodot qaysi jang haqida "Bu jang..... barcha janglardan ham dahshatliroq edi" deb hikoya qiladi?
 A) massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning janggi haqida
 B) saklarning asosiy kuchlari bilan forslarning janggi haqida
 C) Marafon janggi haqida
 D) yunon-makedon janggi haqida

9. Fors podshosi Kir II qaysi jangda halok bo'lganligini aniqlang.
 A) massagetlar bilan bo'lgan jangda
 B) skiflar bilan bo'lgan jangda
 C) midiyaliklar bilan bo'lgan jangda
 D) saklar bilan bo'lgan jangda

10. Fors podshosi Kir II qachon halok bo'lgan?
 A) mil.avv 558-yil B) mil.avv 539-yil
 C) mil.avv 530-yil D) mil.avv 525-yil

11. Fors shohi Doro I hukmronligining birinchi yilida

qayerda fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarilgan edi?

- A) So'g'diyona B) Baqtriya
C) Xorazm D) Marg'iyona

12. Marg'iyonada forslarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloniga kim rahbarlik qilgan edi?

- A) Skunxa B) Shiroq
C) To'maris D) Frada

13. Fors podshosi Doro I qo'shini va Frada boshchiligidagi qo'zg'olonchilar o'rtasida hal qiluvchi jang qachon bo'lganligini aniqlang.

- A) mil.avv.522-yil B) mil.avv.521-yil
C) mil.avv.519-yil D) mil.avv.530-yil

14. Marg'iyonadagi qo'zg'olon rahbari Fradaning taqdiri nima bo'ldi?

- A) boshqa yurtga qochib ketdi
B) Doro I ning xizmatiga o'tdi
C) asir olinib, qatl etildi
D) o'zini-o'zi o'l dirdi

15. Ahamoniylar sulolasi vakillaridan bo'lgan Doro I ning Frada bilan janglari va saklar ustiga yurishi haqida ma'lumotlar qayerda keltirib o'tilgan?

- A) Behistun qoyatosh yozuvlarida
B) Geradot asarlarida
C) Qadimgi O'rta Osiyo manbalarida
D) Doro I yilnomalarida

16. Doro I saklar ustiga qachon yurish qilgan?

- A) hukmronligining birinchi yili
B) hukmronligining ikkinchi yili
C) hukmronligining uchinchi yili
D) hukmronligining to'rtinchi yili

17. Fors podshosi Doro I qachon saklar ustiga yurish qilgan edi?

- A) mil.avv.520-yil B) mil.avv.522-yil
C) mil.avv.519-yil D) mil.avv.521-yil

18. "Behistun bitik"larida fors shohi Doro I saklarning qaysi guruhiga qarshi jangga kirganligi haqida yozilgan?

- A) saka tigraxauda (uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar)
B) saka tiay-taradarayya (daryoning narigi tomonida yashovchi saklar)
C) saka xaumovarka (muqaddas ichimlikka sig'inuvchi saklar)
D) saka akunamatata (hayotning yorqin tarafida yuruvchi saklar)
19. Saklar yurtiga Doro I yurish qilganda ularning sardori Skunxa bo'lganligi haqida qayerda ma'lumot keltirilgan?
- A) Poliyen asarida
B) «Behistun» bitiklarida
C) Gerodotning asarida
D) «Avesto» kitobida

20. Fors podshosi Doro I ning saklar ustiga yurish qilgan qo'shinini Shiroq ismli cho'pon mag'lub qilgani haqidagi ma'lumot bizgacha qanday yetib kelgan?

- A) «Behistun» bitiklari orqali
B) Gerodotning rivoyati orqali
C) Poliyenning rivoyati orqali
D) «Avesto» asari orqali

21. Tarixchi Poliyen qaysi asrda yashaganligini aniqlang.

- A) mil.avv.II asrda B) mil.avv.V asrda
C) mil.avv.VI asrda D) mil.avv.IV asrda

22. Shiroq necha kun suvsiz cho'lu-biyobon bo'ylab fors qo'shinlarini aldab olib yuradi?

- A) yetti kun B) o'n kun
C) o'n to'rt kun D) sakkiz kun

23. Tarixchi Poliyenning ma'lumotiga ko'ra, fors podshosi Doro I ning qaysi xalq ustiga qilgan yurishi muvaffaqiyatsiz tugagan?

- A) massagetlar ustiga B) so'g'diylar ustiga
C) marg'iyonaliklar ustiga D) saklar ustiga

24. Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun ahamoniylar yagona davlatni alohida viloyatlarga bo'lib tashlagan edilar. Bu viloyatlar qanday atalgan?

- A) kent B) sagaris
C) polis D) satraplik

25. Satraplik so'zi forscha "xshatra" so'zidan kelib chiqqan. "Xshatra" atamasining ma'nosini toping.

- A) mamlakat B) viloyat
C) tuman D) davlat

26. Quyidagi javoblarning qaysi biri satraplarning maqomi va holatini to'g'ri aks ettiradi?

- A) satrap cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan
B) satraplar ko'pchiligi ahamoniylar sulolasi vakillaridan bo'lgan
C) satrap davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan shug'ullanardi D) A va B

27. O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo'lingan?

- A) to'rt satraplikka B) uch satraplikka
C) besh satraplikka D) ikki satraplikka

28. O'rta Osiyoning har bir satrapligi.....

- A) yillik soliq to'lagan
B) bir necha mayda birliklarga bo'lingan
C) qo'shin uchun qurol-yarog' yasab bergan
D) yoshlarni qo'shinga jalb qilgan

29. O'rta Osiyo satrapliklari forslarga yillik soliq to'lashdan tashqari

- A) forslarni oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan
B) forslarning harbiy yurishlarida qatnashib turgan
C) fors qo'shiniga qurol-yarog'lar yasab berishgan
D) saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan

1)ahamoniylar sulolasi vakillaridan biri Doro I taxtga o'tirdi

2) Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi

3) Frada rahbarligidagi qo'zg'olonchilar bilan fors qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ladi

4) Doro I yunonlarga qarshi yurish boshlaydi

5) Doro I saklar ustiga yurish qiladi

A) 1,2,3,4,5 B) 1,3,5 C) 1,2,3 D) 2,4,5

50. Quyidagilardan qaysi voqea boshqalarga nisbatan keyin sodir bo'lgan?

A) Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi

B) Kir II massagetlar bilan jangda halok bo'ldi

C) Doro I yunonlarga qarshi Marafon jangida mag'lubiyatga uchradi

D) Marg'iyonada Frada boshchiligidagi qo'zg'olon bostirildi

51. Quyidagi berilgan javoblarning qaysi birida tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan?

1) Kserks qo'shinida xizmat qilgan saklar kamon va nayzalar bilan jangga kirishgan

2) mil.avv 490-yilda bo'lib o'tgan Marafon jangida fors qo'shinlari markazida bo'lgan xorazmiylar muvaffaqiyatli urushgan

3) Doro I hukmronligining birinchi yilida saklar ustiga yurish qilgan

4) O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari uch satraplikka bo'lingan

5) Oltin va kumush buyumlar Amudaryo xazinasidan topilgan

A) 1,2,5 B) 1,4,5

C) 1,2,4 D) 1,2,3

32-mavzu. O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi (61 ta)

1. Nechanchi asrlarda O'rta Osiyo jangchilari sovut kiyib yurganlar, boshlarida dubulg'a bo'lgan, xanjar, jangovar oybolta va nayzalar bilan qurollangan?

A) mil.avv IX-VIII asrlarda

B) mil.avv VIII-VI asrlarda

C) mil.avv VII-IV asrlarda

D) mil.avv VI-IV asrlarda

2. Mil.avv VII – IV asrlarda O'rta Osiyo jangchilarining kamon o'qi va xanjari nimadan yasalgan?

A) temir va bronzadan

B) mis va bronzadan

C) tosh va temirdan

D) oltin va kumushdan

3. Mil.avv.VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar qanday atalgan?

A) «ostrakon» B) «sagaris»

C) «ossuariy» D) «akinak»

4. Mil.avv.VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari orasida «sagaris» qanday qurol bo'lgan?

A) jangovar oybolta B) xanjar

C) nayza D) bargustvon

5. Mil.avv VII – IV asrlarda uzoq masofadan turib jang qilish quroli sifatida nimadan foydalanilgan?

A) xanjardan B) jangovar oyboltadan

C) kamondan D) toshdan

6. Jangovar otlar ustiga va ko'kraklariga temirdan yasalgan nima yopilgan?

A) sagaris B) akinak

C) bargustvon D) ossuariy

7. Mil.avv. VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining jang uslubiga ko'ra dushmanga qarshi hujumni kimlar boshlab berishgan?

A) suvoriylar B) piyodalar

C) kamonchilar D) ayg'oqchilar

8. Mil.avv. VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining jang uslubiga ko'ra dushmanga qarshi hujumni suvoriylar boshlab berishgan. Ular qanday jang taktikasini qo'llaganlar?

A) aylana shaklida dushman safini o'rab olgan

B) dushman qo'shinining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilgan

C) dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilgan

D) ot choptirib kelayotib o'q-yoy, nayza yoki xanjar bilan dushmanga hamla qilgan

9. O'rta Osiyo jangchilari mil.avv VII – IV asrlarda qal'a va shaharlarni himoya qilishda hamda mudofaa maqsadida nimadan foydalanganlar?

1) o'q-yoy 2) palaxmon

3) tosh 4) pishirilgan loy to'p o'qlari

A) 1,2 B) 1,3 C) 2,4 D) 1,2,3,4

10. Mil.avv VII – IV asrlarda O'rta Osiyo shaharlari nimalar bilan o'rab olingan edi?

A) burj va shinaklari bo'lgan mustahkam devorlar bilan

B) ariqlar bilan

C) daraxtlar bilan

D) hayvonlar bilan

11. Mil.avv VII – IV asrlarda O'rta Osiyo shaharlarining tashqi devorlar bo'ylab joylashgan dumaloq burjlar ichida kimlar joylashgan?

A) suvoriylar B) piyodalar

C) kamonchilar D) ayg'oqchilar

12. Mil.avv VII – IV asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida qal'aga kiradigan yo'lni nimalar to'sib turgan?

A) suv to'latilgan chuqur va keng xandaq

B) hayvonlar

C) o'rmonlar

D) tog'lar

13. Aleksandr qachon Makedoniya podshosi bo'lgan edi?

- A) mil.avv.337-yil B) mil.avv.335-yil
C) mil.avv.334-yil D) mil.avv.336-yil

14. Makedoniyalik Aleksandr Makedoniya podshosi bo'lganda necha yoshda edi?

- A) 22 yosh B) 18 yosh
C) 25 yosh D) 20 yosh

15. Makedoniya podshosi Aleksandr nechanchi yilda Sharqqa yurish boshladi?

- A) Mil.avv 334-yilda B) Mil.avv 336-yil
C) Mil.avv 330-yil D) Mil.avv 329-yil

16. Makedoniyalik Aleksandr Sharqqa yurishi davomida qaysi hududlarni bosib olgan edi?

- 1) Kichik Osiyo 2) Falastin 3) Iroq

- 4) Suriya 5) Misr 6) Kavkazorti
7) Hindiston 8) Eron

- A) 1,2,3,4,5,6,7,8 B) 2,3,4,5,7
C) 1,4,5,7,8 D) 1,3,5,7,8

17. Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi necha yil davom etgan?

- A) 5 yil B) 8 yil
C) 10 yil D) 12 yil

18. Makedoniyalik Aleksandr nima maqsadda bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi?

- A) julkan hududda o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida
B) aholini ellinlashtirish maqsadida
C) bosib olingan shaharlar aholisining hammasi qirilib ketganligi uchun
D) yunonlarni oliy irq deb bilgani uchun

19. Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shohni aniqlang.

- A) Doro I B) Doro II
C) Doro III D) Kserks

20. Makedoniyalik Aleksandr qachon Fors shohi Doro III qo'shinlarini tor-mor qilgan edi?

- A) mil.avv.329-yil B) mil.avv.323-yil
C) mil.avv.327-yil D) mil.avv.330-yil

21. Makedoniyalik Aleksandr nima maqsadda Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirishga qaror qilgan edi?

- A) Eronga yurish qilishdan oldin qo'shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida
B) Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida
C) Xorazmga yurish qilishdan oldin qo'shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida
D) Qora dengiz bo'yiga yurish qilishdan oldin qo'shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida

22. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga

yurishida birinchi bo'lib qaysi shahar uning yo'lini to'sgan edi?

- A) Nautaka B) Kiropolis
C) Marv D) Baqtra

23. Mil.avv IV asrda Baqtriya poytaxti qaysi shahar edi?

- A) Nautaka B) Kiropolis
C) Marv D) Baqtra

24. Baqtriya poytaxti bo'lgan Baqtra shahrining ikkinchi nomini aniqlang.

- A) Zariaspa B) Politimet
C) Zarqaynar D) Kurushkat

25. Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida Baqtriya satrapi kim bo'lgan?

- A) Bess B) Dadarshish
C) Xoriyen D) Ariamen

26. Aleksandrqa qarshi kurashda Bess qanday jasorat ko'rsatadi?

A) Aleksandr bilan yakkama-yakka jang qilib uni yengadi

B) Zarafshon daryosi bo'yida unga qarshi pistirma qo'yadi

C) Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafiga qochib ketadi

D) o'zini o'zi o'ldiradi

27. Aleksandr kimning Amudaryodan ikki podsho –

Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutar edi?

- A) Aristobul B) Oksiart
C) Aristotel D) Bess

28. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari qachon Amudaryodan o'ta boshladi?

- A) miloddan avvalgi 323- yilda
B) miloddan avvalgi 333- yilda
C) miloddan avvalgi 329- yilda
D) miloddan avvalgi 330- yilda

29. Amudaryoning qadimgi nomi nima bo'lgan?

- A) Oks B) Yaksart
C) Politimet D) Jayhun

30. Nautaka deb nomlangan hududning geografik o'rnini aniqlang.

- A) Sirdaryo qirg'oqlaridagi hudud
B) Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi
C) Farg'ona sohasining sharqiy qismi
D) Surxondaryo vohasining sharqiy qismi

31. Maroqanda shahri hozirgi qaysi shahar hisoblanadi?

- A) Buxoro B) Marv
C) Marg'ilon D) Samarqand

32. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari qachon Maroqandani egallaydilar?

- A) mil.avv.329-yil B) mil.avv.330-yil

C) mil.avv.327-yil D) mil.avv.328-yil

33. Makedoniyalik Aleksandr Maroqandani egallagach qayerni bosib olish uchun yurish qilgan?

A) B va C javoblar to'g'ri

B) Kurushkat shahrini bosib olish uchun

C) Sirdaryo qirg'oqlarini bosib olish uchun

D) Nautakani bosib olish uchun

34. Sirdaryo qirg'oqlarida joylashgan Kurushkat shahriga kim asos solganligini aniqlang?

A) Kserks B) Makedoniyalik Aleksandr

C) Kir II D) Kambiz

35. Kurushkat shahrining ikkinchi nomini aniqlang.

A) Zariasp B) Kiropolis

C) Politimet D) Karmana

36. Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi So'g'diyona xalqi kurashga chiqadi. Tez orada so'g'diylarga kimlar qo'shiladi?

A) sak va massagetlar

B) baqtriyaliklar va saklar

C) xorazmiylar va parfiyaliklar

D) baqtriyaliklar va xorazmiylar

37. O'rta Osiyoda Aleksandrga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga kim rahbarlik qilgan?

A) Bess B) Oksiart

C) Sparangiz D) Spitaman

38. Spitaman ancha qo'shin to'plab Maroqandani qamal qiladi. Shunda Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga qancha jangchi jo'natadi?

A) ikki mingga yaqin B) uch mingga yaqin

C) to'rt mingga yaqin D) besh mingga yaqin

39. Spitaman qayerda makedonlarga pistirma qo'ygandi?

A) Zarafshon daryosi bo'yida

B) Sirdaryo bo'yida

C) Kurushkat shahrida

D) Amudaryo bo'yida

40. Makedoniyalik Aleksandr yurishi davrida qaysi daryoning nomi «Politimet» deb nomlangan edi?

A) Hind daryosi B) Sirdaryo

C) Amudaryo D) Zarafshon

41. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinining bir qismini unga qarshi qo'zg'olon ko'targan Spitaman qayerda qirib tashlagan edi?

A) Zarafshon daryosi bo'yida

B) Sirdaryo bo'yida

C) Kurushkat shahrida

D) Amudaryo bo'yida

42. Makedoniyalik Aleksandr nima sababdan Aleksandriya Esxata qal'asini qurishni buyurgan?

A) yunon-makedon piyoda va otliq askarlarini joylashtirish uchun

B) saklarga qarshi kurash uchun

C) O'rta Osiyoda o'zining markaziy qal'asi yo'qligi uchun

D) Ravshanakka uylangani uchun

43. Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida qal'a barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a nima deb atalgan?

A) Aleksandriya Esxata

B) Oksdagi Aleksandriya

C) Aleksandr Ekota

D) Marg'iyona Aleksandriyasi

44. "Aleksandriya Esxata" qal'asining ma'nosi nima?

A) Buyuk Aleksandriya

B) Shamoldan kuchli Aleksandriya

C) Chekka Aleksandriya

D) Shoxli Aleksandriya

45. Maroqandada maxsus harbiy qo'shin qoldirgan Aleksandr asosiy qo'shinlari bilan qishlash uchun qayerga jo'naydi?

A) Zariasp B) Politimet

C) Zarqaynar D) Kurushkat

46. Aleksandr o'z lashkarlarini necha qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi?

A) 2 qismga B) 3 qismga

C) 4 qismga D) 5 qismga

47. Makedoniyalik Aleksandr bilan Spitaman o'rtasidagi hal qiluvchi jang qachon bo'lib o'tgan edi?

A) mil.avv.328-yil kuzida

B) mil.avv.330-yil kuzida

C) mil.avv.327-yil kuzida

D) mil.avv.329-yil kuzida

48. Mil.avv 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Bu jangda Spitaman nima sababdan yengilib, cho'lga chekinadi?

A) ob-havo noqulay kelganligi uchun

B) baqtriyaliklar va saklar xoinlik qilganligi uchun

C) kuchlar teng bo'lmaganligi uchun

D) Spitamanning oti o'lib qolganligi uchun

49. Ma'lumki, mil.avv 328-yilda Spitaman Aleksandr bilan hal qiluvchi jangda yengilib, cho'lga chekinadi. O'sha yerda Spitaman

A) mustahkam mudofaa inshootlarini barpo qiladi

B) Xorazm elchilarini qabul qiladi

C) sak va massaget qabilalari boshliqlari bilan Aleksandrga qarshi kurashish uchun harbiy ittifoq tuzadi

D) xoinlarcha o'ldiriladi

50. Makedoniyalik Aleksandr qo'lga kiritgan Xoriyen va Oksiartning tog' qal'alari qayerda bo'lgan edi?

A) Qashqadaryo vohasining sharqida

B) Pomir tog'larida

C) Sirdaryo bo'ylarida

D) Hisor tog'larida

51. Makedoniyalik Aleksandr uylangan Ravshanak qaysi qabiladan bo'lganligini aniqlang?

- A) sak qabilasidan B) fors qabilasidan
C) so'g'd qabilasidan D) massaget qabilasidan

52. Aleksandr uylangan Ravshanak kimning qizi bo'lgan?

- A) Xoriyenning B) Oksiartning
C) Spitamanning D) To'marisning

53. O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr qancha vaqt urindi?

- A) to'rt yil urindi B) besh yil urindi
C) uch yil urindi D) olti yil urindi

54. Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun 3 yil urinib qayerlarni bo'ysundirgan edi?

A) Bekobod va Xo'janddan orasidagi Sirdaryo bo'ylarini

B) So'g'diyona

C) hamma javoblar to'g'ri

D) Marg'iyona, Baqtriya

55. Makedoniyalik Aleksandr bosqini natijasida O'rta Osiyoda qaysi hududlar mustaqilligicha qolgan edi?

- 1) Xorazm 2) Baqtriya 3) Marg'iyona
4) So'g'diyona 5) Farg'ona 6) Toshkent vohasi
7) Sirdaryo bo'ylari

A) 5,6,7 B) 1,2,3

C) 1,5,6 D) 1,4,5

56. Kimlarning bosqinchilik yurishlari tufayli O'rta Osiyo yerlari xarobazorga aylantirildi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron etildi?

- A) yunon-makedon B) forslar
C) yuechjilar D) rimliklar

57. Yunon tarixchilarining yozishicha, kim O'rta Osiyoda bir nechta shaharlar qurdirgan?

- A) Doro I B) Spitaman
C) Aleksandr D) Kserks

58. Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyo hududida qurdirgan shaharlar nomini aniqlang.

- 1) Oksdagi Aleksandriya
2) Aleksandriya Esxata
3) Marg'iyona Aleksandriyasi
4) Maroqanda Aleksandriyasi
5) Aleksandriya Zariasp
6) Yaksartdagi Aleksandriya

- A) 1,3,5 B) 2,4,6
C) 1,2,3 D) 1,2,3,4,5,6

59. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyo hududida qurdirgan shaharlariga kimlar joylashtiriladi?

- A) yunon-makedonlarning piyoda va otliq askarlari
B) forslarning piyoda va otliq askarlari
C) dehqonlar va hunarmandlar
D) zodagonlar va qullar

60. O'rta Osiyoda Aleksandr askarlarining siyraklashgan saflari qaysi hudud yoshlari hisobiga to'ldiriladi?

- A) So'g'diyona va Marg'iyona
B) Baqtriya va Marg'iyona
C) Xorazm va Toshkent
D) Baqtriya va So'g'diyona

61. Bora-bora mahalliy va yunon madaniyatlari an'analarining qo'shilishi natijasida qanday antik davlatlar vujudga keladi?

- A) Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Parfiya
B) Salavkiylar, Parfiya va So'g'diyona
C) Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Marg'iyona
D) Salavkiylar, Xorazm va Parfiya

33-mavzu. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi (24 ta)

1. Makedoniyalik Aleksandr qachon vafot etadi?

- A) Mil. avv. 313-yil
B) Mil. avv. 323-yil
C) Mil. avv. 324-yil
D) Mil. avv. 318-yil

2. Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U barpo etgan davlat uch qismga bo'linib ketdi ular qaysilar?

- A) Marg'iyona, Misr va Hindiston, Eron
B) Makedoniya, Mesopotamiya va Suriyaga
C) Eron, Misr va Suriya, Parfiya
D) Makedoniya, Misr va Suriyaga

3. Aleksandr Makedonskiy barpo etgan davlatlar kim tomonidan boshqarilgan?

- A) Mahalliy hokimlar
B) Eng yaqin lashkarboshilar
C) Oqsoqollar
D) Zodagonlar

4. Salavka qachon Bobil (Suriya davlati) hukmdori bo'lgan edi?

- A) Mil. avv. 312-yil
B) Mil. avv. 303-yil
C) Mil. avv. 314-yil
D) Mil. avv. 308-yil

5. Salavka davlatining tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona qaysi davlatlar kirar edi?

- A) Misr, Eron, Baqtriya, Hindiston, Marg'iyona
B) Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya,
C) So'g'diyona, Hindiston, Eron, Parfiya, Baqtriya
D) Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona

6. Satrap so'zining ma'nosi nima?

- A) Tuman B) Viloyat C) Shahar
D) Alohida davlat

7. Davlat mudofaasi va qo'shnlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan

tayinlangan kimlar shug'ullanar edi?

- A) Satrap B) To'g'ri javob yo'q C)
D) Strateglar

8. Salavk o'z o'g'li Antioxni Sharqiy viloyatlar – noib etib tayinladi. Nuqtalar o'niga kerakli so'zni qo'ying?

- A) Misr, Eron, Baqtriya, Hindiston, Marg'iyonaga.
B) Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonaga.
C) Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyonaga.
D) Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya.

9. Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan davlat?

- A) Parfiya B) Marg'iyona C)
Baqtriya D) So'g'diyona

10. Marg'iyona Antioxiysi o'sh vaqtidagi qaysi shahar edi?

- A) Termiz B) Baqtra
C) Nishopur D) Marv

11. O'rta Osiyo tarixida antik davr qaysivoqeadan so'ng boshlanadi?

- A) Forslar istilolaridan keyin
B) Yunon-makedon istilolaridan keyin
C) A va B D) Buyuk

ipak yo'li paydo bo'lgandan so'ng

12. Makedoniyalik Aleksandr vafot etgandan so'ng u barpo etgan davlat necha qismga bo'linib ketadi?

- A) 2 qismga B) 4 qismga
C) 5 qismga D) 3 qismga

13. Salavk o'z davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyoni alohida viloyatlar –ga ajratdi. Nuqtalar o'niga kerakli so'zni qo'ying?

- A) Nomlar B) Satraplik
C) Davlatlar D) Tumanlar

14. Antiox davrida asta-sekinlik bilan qaysi hududlarda tinch hayot tiklana boshlandi?

- A) So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonada
B) Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonada
C) Parfiya, Baqtriya, So'g'diyonada
D) To'g'ri javob yo'q

15. Qaysi hududda yunon yozuvi, yunon og'irlik o'lchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va san'at buyumlari tarqaldi?

- A) Parfiya B) Termizda
C) Baqtriya D) So'g'diyona

16. O'z navbatida yunonlar ham Baqtriyaning binokorlik va hunarmandchilik an'alarini o'zlashtirdilar?

- A) B va C B) Marg'iyonada C)
So'g'diyona D) Baqtriya

17. Antiox ulkan davlat boshida turib, uni necha yil boshqardi?

A) 20 yilga yaqin

B) 25 yilga yaqin

C) 18 yilga oshiqroq

D) 20 yildan oshiqroq

18. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish kim o'zini podsho deb e'lon qiladi.

- A) Yevtidem B) Antiox
C) Diodot D) Demetriy

19. Mil. avv. 250-yilda Salavkiylar davlati

tarkibidan ajralib chiqqan qaysi davlat Baqtriyaning raqibiga aylanadi.

- A) Parfiya B) Marg'iyona
C) Farg'ona D) So'g'diyona

20. Baqtriya tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgan

A) So'g'diyona va Farg'ona

B) Xorazm va So'g'diyona

C) Marv, So'g'diyona Xorazm

D) So'g'diyona va Marg'iyona

21. Kimning hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi?

- A) Demetriy B) Antiox
C) Diodot D) Yevtidem

22. Mil. avv. Nechanchi yillarda Yunon Baqtriya davlati yuechji qabilalari tomonidan bosib olindi.

A) Mil. avv. 145–135-yillarda

B) Mil. avv. 150–135-yillarda

C) Mil. avv. 143–141-yillarda

D) Mil. avv. 140–130-yillarda

23. Parfiya hokimiyat Mitridat I qo'liga o'tishi bilan u Nuqtalar o'niga kerakli so'zni qo'ying?

- A) Baqtriya harbiy tazyiqni kuchaytiradi
B) Baqtriya bilan aloqalar kuchayadi
C) Baqtriya bilan birga Farg'onani bosib oldi D)
A va B

24. Kimning hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olindi?

- A) Yevtidem B) Antiox
C) Diodot D) Demetriy

34-mavzu (43 ta)

1. Xorazm davlati aholisi xo'jaligi asosini qaysi sohat tashkil qilgan?

- A) Dehqonchilik va chorvachilik
B) Dehqonchilik
C) Hunarmandchilik
D) Chorvachilik

2. Ko'zaliq shahri xarobalari qaysi davrga taaluqli?

- A) m.av. IV asr B) m.av. VI asr

- C) m. av VII asr D) m. av VIII asr
3. Xorazm qachon Ahamoniy davlatidan ajralib, mustaqil davlatga aylandi?
- A) m.av. IV asr B) m.av. VI asr
- C) m. av VII asr D) m. av VIII asr
4. Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi qaysi davrga borib taqaladi?
- A) m.av. IV asr B) m.av. VI asr
- C) m. av VII asr D) m. av VIII asr
5. Qaysi shahar xarobalarida mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qa'la bunyod etilgan edi?
- A) Jonbosqa'la B) Qo'yqirilganqa'la
- C) Qa'laliqir D) Ko'zaliqir
6. Qaysi shahar miloddan avvalgi III-II asrlarga taaluqli Xorazmning qadimga shahri bo'lgan?
- A) Tuproqqa'la B) Qa'laliqir
- C) Ko'zaliqir D) Jonbosqa'la

1. Uzunqir 2. Qalaliqir
3. Yerqo'rg'on 4. Tuproqqa'la
5. Qiziltepa 6. Kat
7. Qo'yqirilganqa'la
8. Afrosiyob
9. Oybo'yirqa'la
10. Maroqand
11. Jonbosqa'la
12. Ko'zaliqir
- A) 1.3.5.6.8.10 B) 1.2.5.6.10.11
- C) 2.4.7.9.11.12 D) 3.4.7.8.9.12
11. Tuproqqa'la shahrida qurilgan ko'rinishlarni qaniqlang?
1. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan
2. Quyosh xudosi Mitra sharafiga ulkan xaykal shahar markaziga o'rnatilgan
3. Devor burjlarida burjlar qurilgan
4. SHahar hunarmandchilik mahallalariga bo'lingan
5. Qurbonliklar uchun maxsus maydonlar qurilgan
6. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga o'tgan
7. Mudofaa devorlari tashqarisida maxsus suv bilan to'ldirilgan xandaqlar qazilgan
8. SHahar daryo o'zanida qurilgan
9. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxona joylashgan
10. Qasr devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, hayvonlar va quyosh tasviri bilan bezatilgan
- A) 1.3.6.9.10 B) 2.4.5.7.8
- C) 1.2.7.8.9 D) 3.4.5.6.10

7. Aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari qaysi shahar xarobalaridan topilgan?
- A) Jonbosqa'la B) Qo'yqirilganqa'la
- C) Oybo'yirqa'la D) Tuproqqa'la
8. Quyidagi qaysi sulola yoki hukmdorlar davrida Xorazm ularning tarkibida bo'lgan?
- A) Ahamoniylar B) Salavkiylar
- C) Makedoniyalik Aleksandr
- D) Yunon-Baqtriya
9. Milodiy II-III asrlarda qaysi shaharda ulug'vor va muhtasham qurilishi ishlari amalga oshirilgan?
- A) Qo'yqirilganqa'la B) Jonbosqa'la
- C) Tuproqqa'la D) Qa'laliqir
10. Qadimgi Xorazm tarkibiga kirgan shaharlarni aniqlang?

12. Tuproqqa'lada qurilgan saroy zallaridan birida,,,,,,,,
- A) Kohinlar uchun maxsus ibodat amallari va rasm-rusumlari o'tkazish uchun maxsus qizil rang bilan bezatilgan xonalar tashkil etilgan
- B) 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan
- C) Aylana shaklda qurilgan zal devorlariga qadimgi Xorazmi bitiklari yozilgan
- D) Hukmdorlar tomonidan zargarlik buyumlari galereyasi tashkil etilgan
13. Xorazmda kumush va mis tangalar qachondan zarb qilingan?
- A) Miloddan avvalgi I asr va milodning dastlabki asrlarida
- B) Miloddan avvalgi II asr va I asrlarda
- C) Miloddan avvalgi I asrning so'nggi choragida
- D) milodiy I va II asrlarda
14. O'rta Osiyoda eng qadimgi yozuv qayerdan topilgan?
- A) Baqtriya B) Xorazmdan C)
- Sug'diyonadan D) Marg'iyonadan

15. Qadimgi Xorazm aholisi qaysi hududlar bilan yaqindan savdo aloqalari yo'lga qo'ygan?

1. Qang'
2. Sug'diyona
3. Xitoy
4. Marg'iyona
5. Baqtriya
6. Ahamoniylar
7. Davan
8. Dasht ko'chmanchilari
9. Salavkiylar
10. Parfiya
- A) 2.4.5.8
- B) 1.3.6.9
- C) 3.5.7.10
- D) 1.2.4.9

16. Xum sirtiga bitilgan yozuv qaysi yodgorlikdan topilgan?

- A) Oybo'yirqa'la
- B) Qo'yqirilganqa'la
- S) Jonbosqa'la
- D) Tuproqqa'la

17. Xorazmning qaysi yodgorliklaridan qadimgi yozuv namunalari topilgan?

1. Jonbosqa'la
2. Oybo'yirqa'la
3. Tuproqqa'la
4. Ko'zaliqir
5. Qo'yqirilganqa'la
6. Qa'laliqir
7. Qizqa'la
8. Kat
- A) 1.3
- B) 4.6
- C) 2.5
- D) 7.8

18. Xorazmda ishlab chiqilgan taqvimdan qaysi davrlarda foydalanishgan?

- A) Milodiy II-asrdan III asrlargacha
- B) Miloddan avvalgi I asrdan va milodiy I asrgacha
- C) Milodiy I asrdan VIII asrgacha
- D) Milodiy IV asrdan V asrgacha

19. Xorazmda mahalliy taqvim qachondan boshlab ishlatilgan?

- A) Miloddan avvalgi II asrdan
- B) Miloddan avvalgi I asr oxiridan
- C) Miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrdan
- D) Milodiy I asrdan

20. Oybo'yirqa'ladan topilgan yozuv qaysi davrga taaluqli?

- A) Miloddan avvalgi III-II asr
- B) Miloddan avvalgi V-IV asr
- C) Miloddan avvalgi I asr- milodiy I asr
- D) Milodiy II- III asr

21. Qo'yqirilganqa'ladan topilgan mahalli yozuv namunalari qayi davrga tegishli?

- A) Miloddan avvalgi V-IV asr
- B) Miloddan avvalgi III-II asr

- C) Miloddan avvalgi I asr- milodiy I asr
- D) Milodiy II- III asr

22. Qaysi manbalarda Qang' davlati Qang'yuy deb atalgan?

- A) Qadimgi yunon manbalarida
- B) Xitoy manbalarida
- C) Behistun bitiklarida
- D) Avesto manbalarida

23. Qang' davlatiga qachon asos solingan?

- A) Miloddan avvalgi II asrda
- B) Miloddan avvalgi I asrda
- C) Miloddan avvalgi III asrda
- D) Milodiy I asrda

24. Qang' davlatiga kimlar asos solgan?

- A) Massagetlar
- B) Dasht ko'chmanchilari
- C) Saklar
- D) Davanliklar

25. Qang' davlatining geografik o'rmini aniqlang?

- A) Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasi
- B) Sirdaryoning yuqori oqimi va Toshkent vohasi
- C) Sirdaryoning quyi oqimi
- D) Toshkent vohasi

26. Qang' davlati poytahtini aniqlang?
A) Qang'dez B) Qang'guy C) Ershi
D) SHo'rabashat

27. Xitoy manbalarida Qang'dez qanday atalgan?
A) Bityan B) Ershi C) Qanqa
D) Davan

28. Qang' davlatining asosiy shaharlari qayerlarda joylashgan?
A) Sirdaryo sohillari bo'ylarida
B) Ohangaron vodiysi va Farg'onada
C) Pomir va Farg'ona vodiysida
D) Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasida

29. Qang' davlat qachon qudratli davlatga aylandi?
A) Miloddan avvalgi II oxirlarida
B) Miloddan avvalgi I oxiri va milodiy I asrda
C) Miloddan avvalgi I asr o'rtalarida
D) Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida

30. Qang' davlati qaysi hududlarida o'troq ziroatchilik va hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan?
A) Sirdaryoning quyi va yuqori oqimida joylashgan shaharlarda
B) Janubiy Qozog'iston hududlarida joylashgan shaharlarda
C) Toshkent vohasida
D) Farg'ona vodiysida

31. Buyuk ipak yo'lining qaysi tarmog'i Qang' davlati hududidan o'tgan?
A) G'arbiy B) SHimoliy C) SHarqiy
D) Janubiy

32. Qang' davlati aholisi qanday atalgan?
A) Qang'dezlar B) Qang'arlar C) Qanguylar
D) Qanqalar

33. Qang' davlatining ko'chmanchi qabilalar bilan urushlarning kelib chiqishiga asosiy sababni aniqlang?
A) Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'ining o'tganligi davlat iqtisodiyotining gullab yashnashiga imkon yaratilganligi
B) Qang' davlatidan o'troq ziroatchilik va hunarmandchilik madaniyatining vujudga kelganligi

C) Hunarmandchilik sohasining yuksak darajada rivojlanganligi va qo'shni davlatlar bilan savdo munosabatlarining yo'lga qo'yilganligi

D) O'rta Osiyo davlatlarining Xitoy va SHarqning boshqa davlatlari bilan savdo karvonlari Qang'dan o'tganligi

34. Qang' davlati qachon parchalanib ketdi?
A) Miloddan avvalgi I asr oxirida B) Milodiy I asrda
C) Miloddan avvalgi II asrda D) Milodiy II asrda

35. Davan davlati nomi qaysi manbalarda shu nom bilan tilga olingan?
A) Behistun bitiklarida
B) Avesto manbalarida
C) Rim va yunon tarixchilari asarlarida
D) Xitoy manbalarida

36. Davan davlatining geografik o'rnini aniqlang?
A) Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasi
B) Farg'ona vodiysida
C) Toshkent vohasida
D) Sirdaryoning quyi va yuqori oqimida

37. Davan davlati qachon tashkil topgan?
A) Miloddan avvalgi II asrda
B) Miloddan avvalgi I asrda
C) Miloddan avvalgi III asrda
D) Milodiy I asrda

38. Xitoy humdorlari sharqning qaysi davlatidagi zotli otlar nasliga qiziqqanlar?
A) Farg'ona B) Toshkent vohasi
C) Xorazm D) Sug'diyona

39. Davan davlatining poytahti?
A) Qang'dez B) Ershi
C) SHurabashat D) Uchqo'rg'on
40. Davan davlati qachon yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan?
A) Miloddan avvalgi I asrda
B) Miloddan avvalgi II-I asrlarda
C) Miloddan avvalgi II asrda
D) Milodiy I va II asrda

41. Quyidagi qaysi shaharlar Davan davlatiga qarashli bo'lgan?

1. Ershi

2. Qang'dez
3. Kat
4. SHo'rabashat
5. Yerqo'rg'on
6. Qiziltepa

7. Afrosiyob
8. Ko'zaliqir
9. Uchqo'rg'on
10. Qa'laliqir

- | | |
|-----------|----------|
| A) 2.5.8 | B) 1.4.9 |
| C) 3.6.10 | D) 5.7.8 |

42. Davan davlati qachon barham topgan?

- A) Milodiy I asrda
- B) Milodiy III asrda
- C) Milodiy II asrda
- D) Miloddan avvalgi I asrda

43. Quyidagi davlatlar va humdorlar tomonidan bosib olingan qabilalar va hududlar mosligini aniqlang

1. Doro I
2. Aleksand Makedonskiy
3. Kir II

35-mavzu. KUSHON PODSHOLIGI (41 ta)

1. Yunon-Baqtriya davlatini yuechji qabilalari qachon bosib oldi? A) mil.avv.140-130-yillarda
B) mil.avv.140-120-yillarda
C) mil.avv.130-130-yillarda
D) mil.avv.150-140-
2. Birlashgan yuechji mulklarining birinchi hukmdorini aniqlang?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka
C) Vima Kadfiz D) Mitridat
3. Kushon podsholigida kimning hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko`chiriladi?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka
C) Vima Kadfiz D) Mitridat
4. Kushon podsholigida kimning hukmronligi davrida Afg`oniston va Kashmir qo`shib olinadi?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
5. Peshavor hozirgi qaysi davlat hududiga tog`ri keladi?
A) Eron B) Afg`oniston C) Hindiston D) Pokiston
6. Kimning davrida Kushon podsholigi ulkan davlatga aylandi?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
7. Kanishka davrida Kushon imperiyasining hududini aniqlang. A) Hindiston va Xo`tandan, Afg`oniston, O`zbekistonning janubiy viloyatlarigacha
B) Hindiston va Kobuldan O`zbekiston janubi, Tojikiston janubi va shimoliy Afg`oniston
C) Janubiy Qozog`iston va shimoliy Afg`oniston
D) O`zbekistonning shimoliy viloyatlaridan to Eron janubigacha
8. Quyidagi shaxslardan qaysi biri Kushon podsholigiga asos solgan ?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
9. Kimning hukmronligi davrida Kushon davlatida tangalar zarb qilina boshlaydi?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
10. Kushon podsholigida tangalar qanday ko`rinishda zarb qilingan? A) hukmdor tasviri tushirilgan B) hukmdor nomi ko`rsatilgan C) hukmdor va malika tasviri tushirilgan
D) sulolaviy ayr tamg`a rasmi tushirilgan
11. Kushon davlatida pul islohotini amalga oshirgan hukmdorni aniqlang
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat

12. Kimning hukmronligi davrida Kushon davalati o`z taraqqiyoti cho`qqisiga erishgan?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
13. Kimning hukmronligi davrida Hindiston, Xitoy va Rim mamlakatlari bilan savdo va elchilik munosabatlari yo`lga qo`yilgan?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat
14. Qunduz shahri qayerda joylashgan?
A) Eron B) Afg`oniston C) Hindiston D) Tojikiston
15. Vima Kadfiz hukmronligi davrida zarb qilingan tangalarda nima tasvirlangan edi?
A) hukmdor tasviri B) old tarafiga hukmdor, orqa tomoniga sulolaviy ayri tamg`a tushirilgan tasvir C) hukmdor va malika tasviri
D) hukmdor nomi ko`rsatilgan tasvir
16. Kushon podsholigida tangalar nimadan zarb qilingan?
A) oltin va kumush B) oltin va mis
C) kumush va mis D) oltin, kumush va mis
17. Kushon davlatiga oid madaniy yodgorliklar xato berilgan javobni toping. A) Xolchayon, Dalvarzintepa
B) Qoratepa, Xolchayon. C) Ayritom, Zartepa
D) Sandiqtepa, Xolchayon
18. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini nima tashkil qilgan? A) dehqonchilik va savdo -sotiq B) sug`orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik
C) chorvachilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik
D) dehqonchilik, zargarlik va savdo-sotiq
19. Kushon davlati inqirozga yuz tutishiga qanday omil sabab bo`ldi? A) to`xtovsiz urushlar B) bo`ysundirilgan aholini mahalliy hokimlar orqali boshqaruv
C) o`zaro ichki nizolar D) xalq qo`zg`alonlari
20. Oromiy yozuvi qayerda paydo bo`lgan?
A) Markaziy Osiyoda B) G`arbiy Osiyoda
C) Arabiston yarim orolida D) Sharqiy Osiyoda
21. Kushon-baqtriya alifbosi qaysi yozuv asosida paydo bo`lgan? A) Oromiy yozuvi B) Misr yozuvi
C) Arab yozuvi D) Yunon yozuvi
22. Yunon alifbosidagi kushon bitiklari qayerdan topilgan? A) Termiz B) Surxko`tal
C) Amudaryo quyi oqimi D) Zarafshon
23. Oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya yozuvi qayerdan topib o`rganilgan?
A) Termiz B) Surxko`tal
C) Amudaryo quyi oqimi D) Zarafshon
24. Surxko`tal hozirgi qaysi shaharga to`g`ri keladi?
A) Termiz B) Toshkent C) Qunduz D) Kobul
25. Kushon podsholigida kimning hukmronligi davrida yang-yangi shaharlar bunyod etiladi?
A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat

26. Xorazm yozuvi qaysi yozuv asosida paydo bo'lgan?

A) oromiy yozuvi B) turk yozuvi C) arab yozuvi D) yunon

27. Sug'd yozuvi qaysi yozuv asosida paydo bo'lgan?

A) oromiy yozuvi B) turk yozuvi C) arab yozuvi D) yunon

28. Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya va So'g'diyonaning aholisi qaysi dinda edi?

A) budda dinida B) qam (shomon) dinida C) zardushtiylik dinida D) nasroniylik dinida

29. Kushon podsholigida kimning hukmronligi davrida Hindistonni bir qismi qo'shib olinadi?

A) Kudzula Kadfiz B) Kanishka C) Vima Kadfiz D) Mitridat

30. Qayerlardan buddaviylik dini O'rta Osiyo bo'ylab tarqalgan? A) Surxon vohasi orqali B) Xorazm vohasi orqali C) Toshkent vohasi orqali D) Sirdayo bo'ylari orqali

31. Kushonlar davrida hozirgi O'zbekiston hududida yuksak darajada taraqqiy etgan.

A) binokorlik va me'morchilik
B) dehqonchilik va hunarmandchilik
C) binokorlik va hunarmandchilik
D) hunarmandchilik va savdo-sotiq

32. Kushon davlatidaning qaysi shaharlari xom g'ishtdan qurilgan mustahkam devorlari bilan o'ralgan edi?

A) Eski Termiz, Dalvarzintepa B) Yerqo'rg'on, Eski Termiz C) Tuproqqal'a, Jonbosqal'a D) Qiziltepa, Yerqo'rg'on

33. Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari qaysi yodgorlikdan topilgan? A) Dalvarzintepadan

B) Xolchayondan C) Qoratepadan D) Ayritomdan

34. Kushon hukmdori saroyi qayerda joylashgan?

A) Dalvarzintepa B) Xolchayon C) Qoratepa D) Ayritom

35. Ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasviri qayerdan topilgan?

A) Ayritom B) Xolchayon C) Qoratepa D) Dalvarzintepa

36. Do'mbira asbobini chalayotgan musiqachilar tasviri qayerdan topilgan?

A) Ayritom B) Xolchayon C) Qoratepa D) Dalvarzintepa

37. Kushon san'a tida qanday uslublar muvofiqlashgan edi? A) Mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan

B) Mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Rim ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan

C) Mahalliy an'analar, Qadimgi G'arb va Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan

D) Mahalliy an'analar, Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan

38. Guyshuan(Kushon) davlatiga qachon asos solingan?

A) milodiy I asrda B) mil.avv.I asrda

C) milodiy II asrda D) mil.avv. II asrda

39. Kushon podsholigining arxeologik yodgorliklari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

1) Qal'aliqir; 2) Xolchayon; 3) Dalvarzintepa; 4)

Qiziltepa; 5) Ayritom; 6) Zartepa; 7) Surxko'tal; 8)

Qoratepa; 9) Qiziltepa; 10) Anqaqal'a

A) 1, 3, 4, 6, 8

B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 2, 3, 5, 6, 7, 8

D) 2, 3, 4, 5, 8, 10

10

40. O'rta Osiyoda qadimiy oromiy yozuvining keng tarqalishiga nima sabab bo'lgan?

A) qo'shni davlatlar bilan yozishmalar shu yozuvda olib borilganligi tufayli

B) yozuvning o'zlashtirilishi juda oson bo'lganligi sababli

C) bu paytda O'rta Osiyoda boshqa boshqa mukammal yozuvning bo'lmaganligi sababli

D) Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari

41. Kushon mamlakatidagi yozuvlaridan kushon shakilli yozuvining shakli qanday bo'lgan?

A) burchakli, to'rtburchakli va aylana

B) ko'pburchak, aylana, o'rtasi to'rtburchak teshik shaklida

C) uzunchoq, yalpoq toshsimon shaklda

D) aylana va o'rtasi to'rtburchak teshik shaklida

36-mavzu. BUYUK IPAK YO'LI (25 ta)

1. Buyuk Ipak yo'li qachongacha mavjud bo'lgan?

